

ARGOLARNING YO‘QOLIB BORISH SABABLARI (G‘AFUR G‘ULOMNING “NETAY” QISSASIDA QO‘LLANILGAN ARGOLAR MISOLIDA)

Matlabjonova Mehribon Mansurjonovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Yusupova O.S.

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada G‘afur G‘ulomning “Netay” qissasida uchraydigan va bugungi kunda kamdan kam qo‘llaniladigan, zamonaviy tilimizda foydalanilmay qo‘yilgan argolar, ularning lingvistik xususiyatlari, mazmuniy vazifasi va badiiy matnning ekspressivligini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Argolar nutqiy jarayonda yashirin ma‘no yaratish, personaj xarakterini ochish va ijtimoiy guruh tilini ifodalash vositasi sifatida baholanadi. Tadqiqot davomida qissadagi argo birliklar semantik, funksional va stilistik nuqtai nazardan o‘rganildi. Natijada, argo birliklarning badiiy asardagi kommunikativ yuklamasi, mif va submadaniyat unsurlari bilan aloqasi aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Argo, jinoiy muhit tili, yashirin ma‘no, personaj nutqi, badiiy matn, lingvistik tahlil, ekspressiv birliklar, mif, submadaniyat.*

Kirish

Vaqtlar o‘tgani sayin tilda ham o‘zgarishlar bo‘ladi. Ba’zi leksik birliklar so‘zlashuv jarayonimizdan chiqib ketishi va ma’lum bir birliklar kirib kelishi mumkin. Shu o‘rinda argolar ham eskirishi, yangilanishi va butunlay yo‘qolib ketishi mumkin. Bu hodisani G‘afur G‘ulomning “Netay” qissasida aks etgan turli argolar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu qissada qo‘llanilgan argolar asosan XX asr boshlaridagi Toshkentning pastki ijtimoiy qatlamlarining (xususan, o‘g‘rilar, mayda jinoyatchilar guruhi) til boyligini ifodalaydi. Qissada argo so‘zlar personajlarning yoshi, kasbi, ijtimoiy va psixologik holatini ko‘rsatishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi qissada uchraydigan argo birliklarni lingvistik, semantik va uslubiy nuqtai nazardan o‘rganishdan iborat.

Muhokama va natijalar

Argo, jargon, sleng odatda sinonim so‘zlar deb qaraladi. Lekin ularni chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, ular o‘rtasida katta farqlar borligini ko‘ramiz. Argo-jargondan qaysidir

darajada maxfiy til hisoblanadi. Argolar yashirin ma’no ifodalaydi. Argo (fransuzcha-argot) ayrim professional yoki sotsial guruhning o‘ziga xos tili [2.61-b].

Badiiy adabiyotlarda noadabiy til vositalari bo‘lgan argo va jargonlardan personajlar nutqini individuallashtirish, muayyan ruhiy vaziyatni yaratishda keng foydalaniladi [1.49-b].

“Netay” qissasida bir qancha argolarni tahlil qilib chiqamiz. Masalan, qo‘r to‘kkan yigit (vaqtini mayxonalarda sarflaydigan kishi), harjoyi ulfat (bir joyda turmaydigan, daydi), hezimkash (urush-janjalni xush ko‘ruvchi, mushtlashuvga moyil kishi), juzza qilmoq (birovga obro‘ keltirish uchun vositachilik qilmoq), monat cho‘zmoq (pul bermoq), qo‘noq (mayxonalarda tunab qoluvchi), zakuska (gazak), so‘lkavoy (rubl) kabi argolar qo‘llanilgan. Bu kabi nutqiy birliklar o‘sha davrdagi mahalla, to‘kma va norasmiy yig‘ilish joylarining yopiq muhitida vujudga kelgan va ularning ijtimoiy kodini tashkil etgan.

Ushbu ijtimoiy guruhlarga xos argolarning zamonaviy o‘zbek adabiy tilidan chiqib ketishi va yo‘qolib borishining asosiy sabablari uch omilga bog‘liq:

- 1) Ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar;
- 2) Tilning standartlashuvu;
- 3) Madaniy transformatsiya.

“Netay” qissasida tilga olingan ko‘plab argolar o‘sha davrdagi yopiq guruhlar muhiti, ishratxonalarning eskirgan tiliga xos edi. 1920-1930-yillarda boshlangan Sovet hokimiyatining ijtimoiy restrukturizatsiyasi jarayonida ushbu sotsial muhitlar yo‘q qilindi, oqibatda ularga xos bo‘lgan til ham o‘zining ijtimoiy funksiyasini yo‘qotdi.

Sovet davridagi umumiy savodxonlik kompaniyalari va yagona adabiy tilning o‘qish, matbuot va radioda agressiv targ‘ib qilinishi ushbu norasmiy va mahalliy so‘zlarning tarqalishiga to‘sqinlik qildi. O‘qish-yozish orqali shakllangan adabiy me‘yor argolarni “notog‘ri”, “past” yoki “dag‘al” deb cheklab qo‘ydi.

Ba’zi argolar (masalan, so‘lkavoy, zakuska) o‘rniga tilga ruscha yoki o‘zbekcha yangi, rasmiy terminlar kirib keldi.

Argo va jargonlarni qo‘llashga qarshi kurash ikki asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda:

- 1) Ma’muriy-ta’limiy choralar;
- 2) Adabiy-madaniy kurash.

Maktab, texnikum, oliygohlarda adabiy til normalarini singdirish grammatika va nutq madaniyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, lug‘atlar, ayniqsa imlo lug‘atlari va izohli lug‘atlarda faqat adabiy til normalariga mos so‘zlarga ro‘yxatga olindi. Bu norasmiy so‘zlarni rasmiy nutqdan chetlashishiga xizmat qildi.

G‘afur G‘ulom singari yozuvchilarning o‘zlari argolarni bevosita badiiy matnga kiritish orqali ijtimoiy xavfini yoki ma’naviy qashshoqligini ko‘rsatib berdi. “Netay” qissasida bu til qahramonlarning salbiy jihatlarini ochib berish vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

G‘afur G‘ulomning “Netay” qissasidagi argo lug‘atining eskirishi zamonaviy o‘zbek tili tarixida ijtimoiy davrning tugashi va tilning tizimli standartlashuvi jarayonining bevosita natijasidir.

Xulosa

Qissadagi argo birliklar bugungi o‘quvchi uchun begona, ba’zan tushunarsiz tuyulishi ham aynan ularning tor ijtimoiy guruhga mansubligi va tarqalish doirasining cheklangani bilan bog‘liq. Vaqt o‘tishi bilan bunday so‘zlar aktiv leksikadan chiqib ketadi, ma’nosi o‘zgarib, butunlay boshqacha mazmunda qo‘llanila boshlaydi yoki faqat ma’lum submadaniyat ichida yashirin holda saqlanib qoladi.

“Netay” qissasi o‘sha davrning real til muhitini badiiy tarzda qayd etgani bois undagi argolar — tarixiy til qatlaminin bir bo‘lagi. Ular yordamida muallif qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishini, xarakterini atrof-muhitning ruhini, ko‘cha hayotining keskinligini, aniq va jonli tarzda ko‘rsatgan.

Shu sababli “Netay” qissasidagi argolar faqat qo‘pol so‘z sifatida emas, balki o‘z davrining lingvokulturologik manzili, sotsiolingvistik belgisi sifatida qadrlanishi kerak. Ularning yo‘qolib borayotgani esa jamiyatning til madaniyati o‘zgarib borayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkinova M. O‘zbek tilida jargon, argo, slenglarning qo‘llanishi. -Toshkent. <https://tsuull.uz>. 49-b.
2. Omonturdiyev A., Abduraimova Sh. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. -Toshkent, 2016. 61-b.
3. Sodiqov H., Jo‘rayev N. Turkiston Chorizm davrida. -Toshkent: aksiyadorlik kompaniyasi, 2011.
4. G‘afur G‘ulom. Netay(qissa). -Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.